

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**2022-YILGI NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH  
TO'G'RISIDA**

Xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati va ezgu qadriyatlarini o'zida yaqqol mujassam etgan, ona tabiat va odamlar ruhiyatida yuz beradigan yasharish, yangilanish va yuksalishlarni asrlar davomida to'la namoyon qilib kelayotgan Navro'zi olam eng ardoqli milliy bayramlarimizdan biri hisoblanadi.

Ushbu qadimiy bayramning ruhi va falsafasida mujassam bo'lgan borliqni asrab-avaylab, doimo u bilan uyg'un bo'lib yashash, mehr-oqibat, xayru saxovat, bunyodkorlik, bag'rikenglik, do'stlik va hamjihatlik singari yuksak g'oyalar bugungi kunda yanada teran mazmun va ahamiyat kasb etib borayotganini alohida ta'kidlash lozim. Yurtimizda erkin va farovon hayot barpo etish, inson qadrini ulug'lashdek buyuk maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli demokratik islohotlar jarayonida barcha milliy qadriyatlarimiz qatori Navro'z umumxalq bayrami ham o'ziga xos ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir vatandoshimiz o'zining huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini tobora chuqur anglab borayotgan Yangi O'zbekiston sharoitida Navro'z tom ma'noda umumxalq bayramiga aylanib, el-yurtimiz tomonidan katta shodu xurramlik bilan nishonlanmoqda.

Xalqimiz asrlar davomida e'zozlab kelayotgan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tarafidan xalqaro bayram sifatida e'tirof etilgan Navro'zi olamning ana shunday beqiyos ahamiyatini hisobga olib hamda ushbu ayyomni mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan o'zgarish va yangilanishlar jarayoniga uyg'un va hamohang tarzda, har tomonlama yuksak saviyada o'tkazish maqsadida:

1. 2022-yilgi Navro'z umumxalq bayrami mamlakatimizda "Assalom, Navro'z — yangilanish, mehr-oqibat va qadr-qimmat ayyomi!" degan bosh g'oya asosida umumxalq sayillari shaklida ko'tarinki ruhda va yuqori saviyada nishonlansin.

2. Quyidagilar:

2022-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha Tashkiliy qo'mita tarkibi [1-ilovaga](#) muvofiq;

2022-yilgi Navro'z umumxalq bayramini o'tkazish bo'yicha "Yo'l xaritasi" [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Tashkiliy qo'mita (A.N. Aripov) "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan chora-tadbirlarning samarali bajarilishi hamda Navro'z umumxalq bayramining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda umumxalq sayillari shaklida keng nishonlanishini ta'minlasin.

3. Joylarda Navro'z umumxalq bayramini yuqori saviyada o'tkazish maqsadida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilsin:

Navro'z kunlarida inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, ona zaminga mehr va e'tibor yaqqol o'z ifodasini topishini aks ettiradigan, atrof-muhitni, uning ne'matlarini asrab-avaylash, bugungi tinch hayotni qadrlab, shukronalik tuyg'usi bilan yashashga, inson qadrini ulug'lashga da'vat etadigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish;

so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar, xalqimizning hayoti, qalbi va ongida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni Navro'zning azaliy qadriyat va an'analariga hamohang tarzda, ta'sirchan usullarda ifoda etish;

Toshkent shahridagi "Yangi O'zbekiston" majmuasida alohida dasturlar asosida xalq sayillarini tashkil etish;

bayram munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va faxriylari, keksa avlod vakillarini har tomonlama e'zozlash, Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyalanuvchilari, Saxovat

uyularida yashayotganlar, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Mehr daftari”ga kiritilgan hamda ko‘makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga beg‘araz yordam berish bilan bog‘liq xayriya tadbirlarini amalga oshirish;

mamlakatimizda boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlarni uyushtirish, Navro‘z umumxalq bayrami arafasida respublikamizning barcha hududlarida, har bir ko‘cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonchilik va ko‘kalamzorlashtirishga qaratilgan umumxalq hasharlarini o‘tkazish;

millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning amaliy natijalari, yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarining Navro‘z umumxalq bayramini nishonlashga oid urf-odatlarini, an‘ana va qadriyatlarini keng namoyish etish;

bayram tadbirlari bo‘lib o‘tadigan joylarda hunarmandchilik ko‘rgazmalari, milliy sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, kitob rastalari, ko‘chma savdo do‘konlarini tashkil qilish, ko‘klam taomlarini tayyorlash va ularning savdosini yo‘lga qo‘yish;

barcha shahar va qishloqlarda o‘tkaziladigan bayram tadbirlarida, ommaviy axborot vositalarida Navro‘z bayramining tarixi, har bir hudud aholisi o‘rtasida uni nishonlash bilan bog‘liq urf-odat va an‘analarning mohiyati va ahamiyatini keng yoritish.

#### 4. Madaniyat vazirligi (O.A. Nazarbekov):

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi (M.M. Xodjimatomov) va Yozuvchilar uyushmasi (S.S. Saidov) bilan birgalikda bir hafta muddatda Toshkent shahrida Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan teatrlashtirilgan konsert tomoshasining dasturi va ssenariysini ishlab chiqsin;

konsert tomoshasini tajribali ssenarist va rejissorlar, bastakorlar, baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste‘dodli yosh ijrochilar, folklor san‘ati vakillari bilan birgalikda yuqori badiiy saviyada tayyorlash choralarini ko‘rsin.

#### 5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

a) bir hafta muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi Navro‘z umumxalq sayillarini o‘tkazish bo‘yicha hududiy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin:

Navro‘z umumxalq sayillari o‘tkaziladigan asosiy maydonlar, xiyobonlar va ko‘chalarni belgilash, ularni milliy uslubda bayramona bezatish hamda sahnalarni o‘rnatish;

joylarda bo‘lib o‘tadigan umumxalq sayillariga mahalliy folklor guruhlari, badiiy havaskorlik jamoalari, sirk san‘ati ustalari, oilaviy ansambllar, baxshilar, shoirlar, shuningdek, professional ijrochilar va iste‘dodli estrada artistlarini belgilangan tartibda keng jalb etish;

bayram tadbirlari doirasida har bir hududga xos bo‘lgan xalq o‘yinlari, tomoshalar, ko‘rgazmalar o‘tkazish, bahoriy taomlar sotiladigan ochiq oshxonalarini joylashtirish;

b) bayram dasturlarini va ommaviy tomoshalarni tayyorlashda, ko‘chalar, xiyobonlar va maydonlarni bezatishda malakali mutaxassislardan iborat ijodiy guruhlarni keng jalb etsin;

v) barcha tadbirlar karantin qoidalari va jamoat xavfsizligi talablariga qat‘iy rioya qilgan holda o‘tkazilishini ta‘minlasin.

#### 6. Belgilab qo‘yilsinki, o‘tkaziladigan bayram tadbirlari:

Toshkent shahrida respublika budjeti va Toshkent shahar mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan teng ulushlarda;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va viloyatlarda mahalliy budjetlar hisobidan qoplanadi.

7. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, “Dunyo” axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish ishlarini va bayram tadbirlarini atroflicha yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,

**2022-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita**

**TARKIBI**

1. A.N. Aripov — Bosh vazir, *Tashkiliy qo'mita raisi*
2. A.A. Abduvaxitov — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, *Tashkiliy qo'mita raisining o'rinbosari*
3. X.M. Sultonov — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi
4. A.A. Jo'raboyev — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o'rinbosari
5. J.A. Artixodjayev — Toshkent shahar hokimi, *Tashkiliy qo'mita raisining o'rinbosari*
6. O.A. Nazarbekov — madaniyat vaziri
7. T.A. Ishmetov — moliya vaziri
8. A.X. Komilov — tashqi ishlar vaziri
9. B.N. Qurbonov — mudofaa vaziri
10. P.R. Bobojonov — ichki ishlar vaziri
11. R.M. Jo'rayev — Milliy gvardiya qo'mondoni
12. A.X. Toshqulov — oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri
13. B.O. Saidov — xalq ta'limi vaziri
14. A.V. Shin — maktabgacha ta'lim vaziri
15. B.A. Musayev — sog'liqni saqlash vaziri
16. Sh.X. Shermatov — axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri
17. N.B. Sayfullayev — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi madaniyat va san'atni rivojlantirish sho'basi mudiri
18. G.M. Ma'rufova — mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirining birinchi o'rinbosari
19. B.S. Yuldashev — Fanlar akademiyasi prezidenti
20. A.A. Xodjayev — Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori
21. R.J. Qurbonov — Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi raisi
22. A.Z. Sa'dullayev — Yoshlar ishlari agentligi direktori
23. F.F. Abduxoliqov — Kinematografiya agentligi bosh direktori
24. A.J. Xadjayev — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi
25. A. Ko'chimov — O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori
26. A.V. Nuridinov — O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi

27. M.M. Xodjimatrov — Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari
28. S.S. Saidov — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
29. R.A. Abdullayev — O'zbekiston Kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi raisi
30. Sh.T. Qudratxo'jayev — Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi boshqaruvi raisi
31. O.A. O'sarov — O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi
32. J.S. Eshonqulov — filologiya fanlari doktori, professor, folklorshunos
33. Sh.G. Turdimov — filologiya fanlari doktori, folklorshunos
34. *Lavozimiga ko'ra* — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlari
35. O.N. Qudratov — Vazirlar Mahkamasining kotibiyati mudiri, *Tashkiliy qo'mita kotibi*

Izoh: Tashkiliy qo'mita a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga tayinlangan shaxslar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2022-yil 17-fevraldagi  
PQ-134-son qaroriga  
2-ILOVA

## 2022-yilgi Navro'z umumxalq bayramini o'tkazish bo'yicha

### "YO'L XARITASI"

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
<b>I. Tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar</b>					
1.	Joylarda Navro'z umumxalq bayramini mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning amaldagi ifodasi sifatida yuqori saviyada o'tkazish.	1. Hududiy tashkiliy qo'mitalar tarkibini shakllantirish. 2. Navro'z bayramini yuqori saviyada nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish. 3. Chora-tadbirlarning ijrosini ta'minlash.	2022-yil fevral 2022-yil mart	-	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, tegishli vazirliklar va idoralar
2.	<b>"Yashil makon"</b> umummilliy loyihasi doirasida Navro'z bayrami arafasida barcha shahar va qishloqlarda, mahallalarda umumxalq hasharlari, keng qamrovli obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlari, ta'lim muassasalarining o'quvchi va talabalari ishtirokida <b>"Mahallamga nihol ekaman!"</b> aksiyasini o'tkazish.	1. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	2022-yil fevral — aprel	Mahalliy budjet mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, tashkilotlarning o'z mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi